



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 344 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
Nabijonova Feruza Valijon qizi	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
O'rinova Nilufar Muxammadovna	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
Tashpulatova Nodira Olimjon qizi	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
Umbarova Nasiba Xolboy qizi	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
Abduraxmanova Charos Burxanovna	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
Allanazarova Sadoqat Azimovna	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
Jumanov Sherzod Saloyevich	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
Qahramonova Xumora Qahramonovna	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi.....	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics.....	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.....	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatulloevna	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafuz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry	182
Nasrullayev Javlonbek Ta'atonovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi 191 Qahhorova Sojida Bahodir qizi, Zokirov Javoxir G'aybullo o'g'li	191
	Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli 196 Salomova Nargiza Sattorovna	196
	Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili..... 200 Shukurova Nargiza Ikramovna	200
	Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish 205 Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi	205
	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish... 210 Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna	210
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari 216 Uralova Nurxon Maxadovna	216
	Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni..... 220 Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna	220
	Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari 223 Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi	223
	Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology 226 Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafuz	226
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati 229 Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich	229
	Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи 233 Маматкулов Равшанжон Солижонович	233
	Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной" 237 Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек	237
	Maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari..... 240 Akbutayeva Gulasal Uzoq qizi	240
	Features of Verbal and Non-Verbal Communication in Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions 248 Gulnoza Aslamovna Azimkulova	248
	Chaenomeles Japonica (Thunb.) Lindl. Ex Spach mevalaridan ajratib olingan polifenol va pektin komplekslarining ichak mikrobiotasi, oksidlovchi stress va immun javobga ta'sirini molekulyar-biologik usullar asosida tadqiq etish 251 Ergasheva Nigora G'ayratovna	251
	Contemporary Linguodidactic Trends in Teaching English in Higher Education 259 Khudoyarova Ziyoda Maratovna	259
	Yuqori sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muammo va imkoniyatlari..... 264 Layloxon Xabibullayeva Tursunali qizi	264
	Raqamli sport pedagogikasi va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari..... 269 Matvapayev Azizbek Gaibnazar o'g'li	269
	Sun'iy intellektga qaramlik: raqamli addiksiya evolyutsiyasining yangi bosqichi 273 Mo'minxo'jayeva Zuhra Alimjon qizi	273
	Linguo-Cognitive Modeling of The Relationship Between Life and Death In Literary Texts: a Comparative Analysis (Based on 20 th -Century English and Karakalpak Works)..... 279 Najimova Perizad Arslanbay qizi	279
	Talabalar intellektual qobiliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari 283 Shodiyeva Charos Ravshan qizi	283
	Ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashga qaratilgan mashg'ulotlarining asosiy bosqichlari 286 Xaytova Farida Kuchkarovna	286



Raqamli va an'anaviy o'qish: qiyosiy tahlil.....	292
<i>Mashrapova Sevara Xabibovna</i>	
Mustahkam oila qadriyatlari va ularning zamonaviy jamiyat rivojiga ta'siri.....	296
<i>Soyibova Bonu O'tkir qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik mohiyati	301
<i>Xoliqov Farxod Karomatillo o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar: sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish metodikasi...	305
<i>Aminov Shavkatjon Sobir o'g'li, Abdusattarova Muhlisaxon Foziljon qizi, Berdiyaroova Jasmena Sherzodjon qizi</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarda koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishning samarali vositalari	311
<i>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</i>	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompEtensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.....	315
<i>Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi</i>	
Xorijiy tillarda yozma ish turlarini o'rganishning o'ziga xos jihatlari	319
<i>Omonova Sarvinoz</i>	
Can Duolingo Reduce Speaking Anxiety: A Literature-Based Analysis	322
<i>Qodirqulova Ra'no</i>	
Kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini takomillashtirish	326
<i>Sa'dullayeva Shahzoda Nuriddin qizi</i>	
Zamonaviy psixologning kasbiy kompetensiyasi: krizisli vaziyatlarda ishlash texnologiyalari.....	330
<i>Shirinov Otabek Tualovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	333
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Иммерсивные технологии в обучении русскому языку как иностранному: современные подходы и перспективы	337
<i>Абдусаламова Адига Каримджановна</i>	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов филологического направления русскому языку в сопоставлении с узбекским языком	340
<i>Касимов А. Б.</i>	

MAKTAB BOSHQARUVIDA ILMIY ASOSLANGAN YONDASHUVLARNI JORIY ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Akbutayeva Gulasal Uzoq qizi

Toshkent shahar Yunusobod tumani

247-sonli maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqola maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot davomida shart-sharoitlarni aniqlash maqsadida aralash metodik yondashuv qo'llanilib, kuzatuv, suhbat, hujjatlar tahlili hamda miqdoriy so'rov usullari kompleks tarzda amalga oshirildi.

2020–2025-yillar davomida 18 ta umumta'lim maktabida olib borilgan amaliy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, zarur pedagogik shart-sharoitlarni oldindan shakllantirgan maktablar boshqaruv samaradorligi bo'yicha ushbu omillarsiz faoliyat yuritishga uringan maktablarga nisbatan o'rtacha 2,7 baravar yuqori natijalarga erishgan.

Shuningdek, maqolada pedagogik shart-sharoitlarning oltita asosiy guruhi ajratib ko'rsatilgan bo'lib, ularning o'zaro bog'liqligi va boshqaruv jarayonidagi ahamiyati infografik materiallar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy asoslangan boshqaruv, pedagogik shart-sharoitlar, joriy etish, maktab direktori, tashkiliy muhit, kadrlar tayyorligi, motivatsion muhit, raqamli transformatsiya.

Abstract: This article is devoted to the study of the pedagogical conditions necessary for the effective implementation of evidence-based approaches in school management. During the research, a mixed methodological approach was applied to identify these conditions, including the integrated use of observation, interviews, document analysis, and quantitative survey methods.

The results of practical studies conducted in 2020–2025 in 18 general secondary schools showed that schools that had established the necessary pedagogical conditions in advance achieved management effectiveness indicators that were on average 2.7 times higher than those of schools attempting to operate without these factors.

In addition, the article identifies six main groups of pedagogical conditions and, based on infographic materials, highlights their interconnection and significance in the management process.

Key words: evidence-based management, pedagogical conditions, implementation, school principal, organizational environment, staff readiness, motivational environment, digital transformation.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению педагогических условий, необходимых для эффективного внедрения научно обоснованных подходов в управление школой. В ходе исследования с целью определения данных условий был применён смешанный методологический подход, включающий комплексное использование наблюдения, беседы, анализа документов и количественных методов опроса.

Результаты практических исследований, проведённых в 2020–2025 годах в 18 общеобразовательных школах, показали, что школы, заранее сформировавшие необходимые педагогические условия, достигли показателей эффективности управления в среднем в 2,7 раза выше по сравнению со школами, пытавшимися осуществлять деятельность без данных факторов.

Кроме того, в статье выделены шесть основных групп педагогических условий, а также на основе инфографических материалов раскрыты их взаимосвязь и значение в процессе управления.

Ключевые слова: научно обоснованное управление, педагогические условия, внедрение, директор школы, организационная среда, готовность кадров, мотивационная среда, цифровая трансформация.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim boshqaruvida asosiy ziddiyat quyidagicha namoyon bo'ladi: bir tomondan, ilmiy asoslangan boshqaruv yondashuvlarining samaradorligi xalqaro tadqiqotlar bilan ko'p marta tasdiqlangan ^[1; 19]; ikkinchi tomondan, amaliyotda ushbu yondashuvlarni joriy etish urinishlari ko'pincha natijasiz yakunlanmoqda.



Sabab - metodning o'zida emas, balki uni qabul qilish uchun zarur zaminning, ya'ni pedagogik shart-sharoitlarning yetarlicha tayyorlanmaganligidir^[3: 11].

Fullan (2020) iborasi bilan aytganda, "eng yaxshi g'oya ham noto'g'ri tuproqqa ekilsa, unib chiqmaydi"^[2]. Demak, ilmiy asoslangan boshqaruvni joriy etish muammosi aslida ikki qatlamli: birinchisi - nima joriy etish kerak (metodlar), ikkinchisi - qanday sharoitda joriy etish mumkin (shart-sharoitlar). Ammo ilmiy adabiyotlarda ikkinchi qatlam birinчисiga qaraganda ancha kam tadqiq etilgan^[4: 8].

O'zbekiston kontekstida bu muammo yanada o'tkir: Yusupova va Mirzayev (2023) tadqiqotiga ko'ra, ilmiy boshqaruv usullarini joriy etishga uringan maktablarning 64%i birinchi yilda muhim to'siqlarga duch keladi^[3]. Biroq ushbu to'siqlarning tabiati - tashkiliy, kadriy, madaniy yoki huquqiy ekanligini - hali tizimli o'rganilmagan. Aynan shu bo'shliqni to'ldirish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ilmiy yangilik: ushbu tadqiqotda ilk bora O'zbekiston umumta'lim maktablari uchun ilmiy asoslangan boshqaruvni joriy etishning olti guruh pedagogik shart-sharoiti empirik asosda aniqlandi, ular o'rtasidagi bog'liqlik koeffitsiyentlari hisoblandi va joriy etish bosqichlari xaritasi ishlab chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etish masalasi so'nggi yillarda ta'lim menejmenti va pedagogika sohasidagi dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylangan. Xalqaro tadqiqotlarda M. Fullan, A. Hargreaves, K. Leithwood va J. Spillane tomonidan ta'lim muassasalarida samarali boshqaruvning pedagogik, tashkiliy va madaniy omillari chuqur o'rganilgan. Xususan, M. Fullan ta'limdagi o'zgarishlarning muvaffaqiyati avvalo tashkilotning o'zgarishga tayyorligi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

K. Leithwood va hamkorlari maktab rahbarlarining liderlik kompetensiyalari hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy ma'lumotlar asosida qabul qilish ta'lim sifati oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslagan. J. Spillane esa taqsimlangan liderlik konsepsiyasi orqali boshqaruv samaradorligi jamoaviy hamkorlik va pedagoglarning faol ishtiroki bilan bog'liqligini ko'rsatgan.

Mahalliy tadqiqotlarda ham maktab boshqaruvini modernizatsiya qilish, pedagogik liderlikni rivojlantirish va ta'lim sifati boshqarish masalalariga e'tibor qaratilgan. Biroq ilmiy asoslangan boshqaruvni joriy etishning pedagogik shart-sharoitlarini kompleks o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. Shu sababli mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot metodologiyasi uch tamoyilga asoslandi:

- (a) ko'p manbali ma'lumot to'plash (triangulation);
- (b) kontekstga sezgir tahlil;
- (c) amaliyotchini tadqiqot jarayoniga jalb etish.

Ushbu tamoyillar Creswell (2018) ning transformatsion aralash-metodik paradigmasiga mos keladi^[6].

1-jadval: **Tadqiqot dizayni va manbalar tizimi**

Usul	Maqsad	Ishtirokchilar	Ma'lumot turi
Suhbat (semi-structured)	Shart-sharoitlar mohiyatini tushunish	18 direktor, 12 o'rinbosar	Sifatiy
Kuzatuv (non-participant)	Boshqaruv amaliyotini bevosita ko'rish	54 ta boshqaruv yig'ilishi	Sifatiy
Anketali so'rov (Likert 1–5)	Ko'rsatkichlarni miqdoran o'lchash	324 o'qituvchi, 18 maktab	Miqdoriy
Hujjat tahlili	Rasmiy holat va me'yoriy asosni aniqlash	216 ta maktab hujjati	Sifatiy
Ekspertlar bahosi	Shart-sharoitlar muhimligini reyting qilish	9 nafar ta'lim menejmenti eksperti	Aralash
SPSS 26.0 statistikasi	Korrelyatsiya va regress tahlili	Barcha miqdoriy ma'lumotlar	Miqdoriy



1-rasm: Ilmiy asoslangan boshqaruvni joriy etishning shart-sharoitlar tizimi (muallif ishlanmasi)

TAHLIL VA NATIJALAR

“Pedagogik shart-sharoit” tushunchasi ilmiy adabiyotda birinchi navbatda kontekstual omillar sifatida talqin qilinadi: bu shunchaki tashqi muhit emas, balki o'zgarish jarayonini ichidan yo'naltirib turadigan ichki zamin^[8]. Sleegers va Leithwood (2021) fikriga ko'ra, biror-bir innovatsiyaning muvaffaqiyati uning texnik sifati bilan kamroq, uni qabul qiluvchi tashkilotning tayyorlik darajasi bilan ko'proq bog'liq^[8].

Ushbu konsepsiya ta'lim sohasida Rojersning innovatsiyalarni tarqatish nazariyasidan oziqlangan: har qanday yangilik oldindan tayyorlanmagan muhitda rad etiladi, o'rta darajada tayyorlangan muhitda sust qabul qilinadi, yaxshi tayyorlangan muhitda esa tez va mustahkam singib ketadi^[9]. Tadqiqotimiz aynan ushbu “tayyorlik muhiti”ning pedagogik tarkibiy qismlarini aniqlashga qaratilgan.

Xalqaro adabiyotda joriy etish shart-sharoitlarini tasnif qilishda turli yondashuvlar mavjud. Fullan va Kuin to'rtta “to'g'ri haydovchi” (right drivers)ni ajratadi: qobiliyat qurish, hamkorlik, pedagogikani chuqurlashtirish va tizimli fikrlash^[16]. Fiksen va boshqalar oltita amalga oshirish omilini ko'rsatadi: kadrlar, trening, nazorat, qarorlar qabul qilish, ma'muriy qo'llab-quvvatlash va tizimlar o'zgarishi^[10].

Hargreaves va Fullan (2012) “ijtimoiy kapital” va “kasbiy kapital” tushunchalari orqali shart-sharoitlarning insoniy o'lchamini ta'kidlaydi: eng muhim shart-sharoit - bu o'qituvchilarning o'zaro ishonch va bilim almashinuvi muhiti^[12]. OECD (2023) esa maktab innovatsiyasi uchun uch asosiy shart-sharoitni belgilaydi: rahbariyat ishtiyogi, o'qituvchi kompetentligi va tashkiliy qo'llab-quvvatlash tizimi^[7].

O'zbekiston maktablari uchun shart-sharoitlar masalasi o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi. Djurayev (2021) milliy ta'lim tizimining uchta asosiy cheklovi sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:


- (1) boshqaruv an'anasida pedagogik liderlik tushunchasining zaif rivojlanganligi;
- (2) o'qituvchilar o'rtasida ilmiy bilimlarga asoslangan amaliyotga ishonchsizlik;
- (3) tashkiliy o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishning madaniy ildizlari^[11].

Ochilov (2022) tadqiqotida milliy kontekstdagi asosiy shart-sharoit sifatida direktorning shaxsiy ishtiyogi va “o'zgarishga tayyorligi” (change readiness) birinchi o'ringa qo'yiladi: O'zbekiston maktablarida direktor o'zgarmasa, maktab ham o'zgarmaydi^[17]. Bu xalqaro tadqiqotlarda ham tasdiqlangan holat bo'lib (Marzano va boshq., 2005) [26], ammo O'zbekiston kontekstida bu bog'liqlik yanada kuchliroq^[17].

Tadqiqot davomida to'plangan 54 ta suhbat matni, 216 ta hujjat va 324 nafar o'qituvchi anketa javoblari birgalikda tahlil qilinganida, joriy etish muvaffaqiyatini belgilovchi shart-sharoitlarning olti asosiy guruhi ajralib



chiqdi. Ushbu tasnif Fixsen va boshqalar (2005) [10] modeli bilan umumiy tomonga ega bo'lsa-da, milliy kontekstda muhim yangi qatlamlar - madaniy-psixologik va normativ guruhlar - qo'shilgan.



2-rasm: **Shart-sharoitlarning mavjud va zarur darajasi o'rtasidagi tafovut (2024-yil natijalari)**

I-guruh: Tashkiliy shart-sharoitlar

Tashkiliy shart-sharoitlar ilmiy asoslangan boshqaruvni joriy etishning skelet tuzilmasini tashkil qiladi. Tadqiqotimizda ushbu guruhni to'liq shakllantirgan maktablar (n = 8) joriy etish jarayonida 3,1 baravar kamroq to'siqqa duch keldi.

$$(\chi^2=14,7; df=3; p=0,002).$$

2-jadval: **Tashkiliy shart-sharoitlar va ularning ta'sir darajasi**

Shart-sharoit	Ta'sir koeffitsienti (r)	Mavjud daraja (%)	Zarur daraja (%)
Maktabda yozma strategik reja mavjudligi	r = 0,74**	61%	90%
Qaror qabul qilish tartiblari rasmiylashtirilganligi	r = 0,68**	53%	88%
Ma'lumotlar to'plash va saqlash tizimi	r = 0,71**	38%	85%
Tashkiliy o'zgarishlarga ruxsat beruvchi ichki me'yor	r = 0,61*	44%	82%
Maktab ichki kommunikatsiya tizimi	r = 0,66**	57%	87%

Izoh: ** p<0,01; * p<0,05. Manba: Muallif tadqiqoti, SPSS 26.0

II-guruh: Kadrlar tayyorligi shart-sharoitlari

Kadrlar shart-sharoiti eng kuchli ta'sir darajasini ko'rsatdi (o'rtacha r = 0,76). Bu natija Darling-Hammond va boshqalar (2017) ning xulosalari bilan to'liq mos keladi: maktab direktori va o'qituvchilarning birlamchi kompetentlik darajasiga erishmasdan turib, istalgan innovatsiya amalga oshmaydi [13].

Ayniqsa e'tiborli topilma: direktor metodologik kompetentligi (ilmiy tadqiqotlarni o'qish va tushunish qobiliyati) bilan joriy etish muvaffaqiyati o'rtasidagi korrelyatsiya r = 0,79 (p < 0,001) ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich boshqa barcha o'lchangan o'zgaruvchilar orasida eng yuqori edi. Demak, kadrlar shart-sharoitida direktorning o'zi birinchi o'rinda turadi.

3-jadval: **Kadrlar tayyorligi ko'rsatkichlari: tadqiqot guruhlari taqqoslanishi**


Ko'rsatkich	Muvaffaqiyatli guruh (n=12)	Muvaffaqiyatsiz guruh (n=6)	Farq	Ahamiyatlilik
Direktor metodologik kompetentligi (1-5)	4,3 ± 0,4	2,1 ± 0,6	+2,2 ball	p<0,001
O'qituvchilarning ilmiy savodxonligi (%)	72%	28%	+44 pp	p<0,001
Yiliga malaka oshirish soati (o'rtacha)	68 soat	24 soat	+44 soat	p<0,01
Mentorlik dasturi mavjudligi (%)	83%	17%	+66 pp	p<0,001
Kadrlar saqlanishi (%)	91%	67%	+24 pp	p<0,01

Manba: Muallif tadqiqoti, 2020-2025-yillar

III-VI-guruhlar: Qolgan shart-sharoitlar

III-guruh - Resurs va infratuzilma shart-sharoitlari. Bu guruhda eng katta tafovut raqamli vositalar bo'yicha kuzatildi: tadqiqotga kiritilgan shahar maktablarining 74% ida asosiy raqamli infratuzilma mavjud bo'lsa, qishloq maktablarida bu ko'rsatkich atigi 31% ni tashkil etdi. Biroq e'tiborli topilma shundaki, raqamli infratuzilma mustaqil ravishda joriy etish muvaffaqiyatini ta'minlamasdi - faqat kadrlar va tashkiliy shart-sharoitlar bilan birgalikda u sinergiya berdi (moderatsion tahlil, $\beta=0,34$, $p=0,018$).

IV-guruh - Normativ-huquqiy shart-sharoitlar. So'rov ishtirokchilarining 78%i maktab avtonomiyasining hozirgi darajasi ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish uchun yetarli emasligini ta'kidladi. Direktorlarning 61%i ma'lumotlarga asoslangan o'zgartirishlar kiritish uchun yuqori organdan rasmiy ruxsat olishi zarurligini bildirdi. Bu holat Spillane (2006) ^[15] ta'kidlagan "liderlik bo'shlig'i" (leadership gap) muammosining mahalliy namoyon bo'lishidir.




3-rasm: Maktab guruhlarining shart-sharoitlar profili: ilmiy tizimga o'tgan va an'anaviy tizim maktablari (radar tahlil)

V-guruh - Madaniy-psixologik shart-sharoitlar. Ushbu guruh eng nozik va o'lchash qiyinroq bo'lgan shart-sharoitlarni o'z ichiga oladi. Suhbatlarni tematik tahlil qilish natijasida to'rtta asosiy to'siq aniqlandi:

- (a) yangilikni "nazorat" sifatida qabul qilish;
- (b) muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish;
- (c) ilmiy bilimlarga nisbatan ishonchsizlik;
- (d) jamoaviy o'zgarishga tayyor bo'lmaslik.

Ushbu to'siqlar Deci va Ryan (2000) ^[12] ning "nazorat qilinganlik hissi" konsepsiyasi bilan izohlanadi.

VI-guruh - Raqamli imkoniyatlar shart-sharoitlari. Raqamli transformatsiya alohida guruh sifatida ajratilishining sababi shuki, u nafaqat vosita, balki butun bir boshqaruv paradigmasini o'zgartiruvchi muhit hisoblanadi. Hattie ^[19] ta'kidlaganidek, ma'lumotlarni real vaqtda ko'ra olish imkoniyati direktorni refleksiv amaliyotchiga aylantiradi. Tadqiqotimizda ma'lumot tizimlarini joriy etgan maktablarda qarorlar qabul qilish tezligi 3,4 marta oshdi.




4-rasm: Shart-sharoitlar rivojlanish dinamikasi (2020–2024): ilmiy asoslangan boshqaruvga o'tgan 12 ta maktab

Dinamika tahlili (4-rasm) bir qancha muhim xususiyatlarni ko'rsatmoqda.

Birinchiidan, eng tez o'sgan shart-sharoit - raqamli imkoniyatlar (+50 pp, 2020-2024) - ayni paytda eng past boshlang'ich nuqtadan (24%) yo'lga chiqqan. Bu COVID-19 pandemiyasining ta'lim raqamlashuviga bergan turtki bilan izohlanadi.

Ikkinchiidan, normativ asos shart-sharoiti barqaror o'sish ko'rsatayotgani (61%dan 85%ga) O'zbekistondagi ta'lim islohotlari qonuniy bazasining mustahkamlanayotganini aks ettiradi. Uchinchiidan, psixologik muhit va kadrlar tayyorligi o'rtasidagi korrelyatsiya ($r = 0,84$, $p < 0,001$) shuni ko'rsatadiki, kompetentligi oshgan o'qituvchilar o'zgarishlarga psixologik jihatdan ham ochiqroq bo'ladi.



5-rasm: Ilmiy asoslangan boshqaruvni joriy etishning bosqichlari - yo'l xaritasi (muallif ishlanmasi)

Yo'l xaritasi (5-rasm) besh bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqich muayyan shart-sharoitni shakllantirishga yo'naltirilgan. Muhimi - bu bosqichlar parallel ham, ketma-ket ham bajarilishi mumkin, lekin 1-bosqich (diagnostika va tahlil) boshqalari uchun zarur asos hisoblanadi.

Tadqiqotning eng muhim topilmasi - shart-sharoitlar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirdir. Ko'p o'zgaruvchili regress tahlili shuni ko'rsatdiki, bir guruh shart-sharoitini shakllantirish boshqa guruhlarning samaradorligini ham oshiradi (krossguruh effekt, β o'rtacha 0,28, $p < 0,05$). Bu natija Senge (2006) [22] ning "tizimli fikrlash" prinsipi bilan uyg'un: shart-sharoitlar yakka holda emas, tizim sifatida ishlaydi.

Qiziqarli solishtirma natija: Finlandiya maktab tizimida kadrlar shart-sharoiti asosiy e'tibor olsa [14], Singapurda tashkiliy va raqamli shart-sharoitlar ustuvor [7]. O'zbekiston maktablarida esa eng qisqa muddatda va minimal xarajat bilan erishish mumkin bo'lgan shart-sharoit - psixologik-madaniy muhit ekanligi aniqlandi, chunki u moliyaviy sarmoya emas, balki rahbarlik uslubini o'zgartirish orqali shakllantiriladi.

Amaliy tavsiyalar: ketma-ketlik muhim

Tadqiqot natijalari asosida bitta muhim amaliy xulosa: maktabda ilmiy asoslangan boshqaruvni joriy etishni tashkiliy shart-sharoitlarni yaratishdan boshlash kerak, kadriy shart-sharoitlarni esa parallel ravishda rivojlantirish lozim. Madaniy-psixologik shart-sharoitlarga esa barcha bosqichlarda e'tibor qaratilishi zarur, chunki u boshqa shart-sharoitlar uchun "erituvchi muhit" vazifasini bajaradi.

Maktab direktori uchun birinchi va eng muhim amaliy qadam - "diagnostika bayrog'i"ni ko'tarish: qaysi shart-sharoitlar mavjud, qaysilari yetishmayapti? Ushbu savolga javob bermasdan, joriy etishni boshlash - poydevor qo'ymasdan bino qurish bilan tengdir ^[11].

Tadqiqotning asosiy cheklovi - tanlanma geografik chegaralanganligidir (Toshkent sh. va vil.). Bundan tashqari, shart-sharoitlarni baholash o'z-o'zini hisobot berish (self-report) usulida amalga oshirildi, bu esa ijtimoiy istakchilik (social desirability) xatosini keltirib chiqarishi mumkin. Kelajakda observatsion va o'zaro tekshiruv (cross-check) metodlarini kuchaytirish zarur.

Kelgusi tadqiqotlar uchun uchta ustuvor yo'nalish:

- (1) respublika miqyosida kengaytirilgan tanlanmada tadqiqotni takrorlash;
- (2) shart-sharoitlar ketma-ketligini aniqlash uchun uzunlamasiga dizayn (longitudinal design);
- (3) maktab direktori liderlik uslubi va shart-sharoitlar profili o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot maktab boshqaruvida ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etishning asosiy to'sig'i metodlar yoki resurslar emas - tayyorlanmagan pedagogik shart-sharoitlar ekanligini empirik jihatdan isbotladi. Olti guruh shart-sharoitdan iborat integral model (tashkiliy, kadriy, resurs-infratuzilma, normativ-huquqiy, madaniy-psixologik va raqamli) va ularning o'zaro ta'sir koeffitsiyentlari bu sohada ilk sistematik yo'riqnomani tashkil etadi.

Kadrlar shart-sharoiti, ayniqsa direktor metodologik kompetentligi ($r = 0,79$), barcha ko'rsatkichlar orasida joriy etish muvaffaqiyati bilan eng kuchli bog'liqlikni ko'rsatdi. Bu natijaning amaliy xulosasi aniq: O'zbekistonda maktab boshqaruvini ilmiy asosga o'tkazish uchun birinchi navbatda direktorlarni menejment va ilmiy savodxonlik bo'yicha qayta tayyorlash tizimini isloh qilish zarur.

Shart-sharoitlar tizimining sinergik tabiati (krossguruh effekt $\beta = 0,28$) shuni ko'rsatadiki, faqat bitta guruhga sarmoya kiritish yetarli emas. Maktab o'zgarishi tizimli yondashuv talab qiladi - xuddi Fullan (2020) ^[2] ta'kidlaganidek, "tuzilma strategiyasi" bilan "madaniyat strategiyasi"ni bir vaqtda qo'llash eng yuqori natijani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barends, E., Rousseau, D. M., & Briner, R. B. (2014). Evidence-Based Management: The Basic Principles. Amsterdam: Center for Evidence-Based Management, 98 p.
2. Fullan, M. (2020). O'zgarishlar madaniyatida yetakchilik. 2-nashr. - San-Fransisko: Jossey-Bass. - 224 b.
3. Yusupova, Z.A., & Mirzayev, B.T. (2023). O'zbekiston ta'lim tizimida boshqaruv islohotlari: muammolar va istiqbollari. Pedagogika akademiyasi axborotnomasi. - №1. - 12-29-b.
4. Nutley, S.M., Walter, I., & Davies, H.T.O. (2007). Dalillardan foydalanish: Tadqiqotlar davlat xizmatlarini qanday boyitishi mumkin. - Bristol: Policy Press. - 336 b.
5. Hallinger, P. (2020). Ta'limdagi yetakchilik va boshqaruv bo'yicha bilimlar bazasining ilmiy xaritasi (1965-2018). Educational Management Administration & Leadership jurnali.
6. Creswell, J.W., & Plano Clark, V.L. (2018). Aralash usullardagi tadqiqotlarni loyihalash va o'tkazish. 3-nashr. - Thousand Oaks, Kaliforniya: SAGE. - 520 b.
7. OECD (2023). Ta'limga bir nazar 2023: Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) indikatorlari. - Parij: OECD nashriyoti.
8. Slegers, P., & Leithwood, K. (2021). O'qituvchilarning o'rganishi orqali maktabni rivojlantirish. School Effectiveness and School Improvement jurnali.
9. Rogers, E.M. (1962). Innovatsiyalarning diffuziyasi (tarqalishi). 1-nashr. - Nyu-York: Free Press. - 367 b.
10. Fixsen, D.L., va boshqalar (2005). Amaliyot tadqiqotlari: Adabiyotlar sintezi. - Tampa, Florida: Janubiy Florida universiteti. - 119 b.
11. Djurayev, R.X. (2021). Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi va metodologiyasi. - Toshkent: Fan. - 312 b.
12. Deci, E.L., & Ryan, R.M. (2000). Maqsad sari intilishning "nima"si va "nega"si. Psychological Inquiry jurnali.
13. Darling-Hammond, L., va boshqalar (2017). O'qituvchilarning samarali professional rivojlanishi. - Palo-Alto: Ta'lim siyosati instituti.
14. Sahlberg, P. (2021). Finlyandiya saboqlari 3.0: Dunyo Finlyandiyadagi ta'lim o'zgarishlaridan nimani o'rganishi mumkin? - Nyu-York: Teachers College Press.
15. Spillane, J.P. (2006). Taqsimlangan yetakchilik. - San-Fransisko: Jossey-Bass. - 128 b.
16. Fullan, M., & Quinn, J. (2016). Izchillik: Maktablar va tizimlar uchun to'g'ri harakatlantiruvchi kuchlar. - Thousand Oaks: Corwin.
17. Ochilov, M.Q. (2022). Maktab menejmenti: innovatsion yondashuvlar. Pedagogika va psixologiya jurnali, №4. - 45-58-b.
18. Schon, D.A. (1983). Refleksiv amaliyotchi: Mutaxassislar ish jarayonida qanday fikrlaydi? - Nyu-York: Basic Books.
19. Hattie, J. (2009). Ko'rinarli ta'lim: 800 dan ortiq meta-tahlillar sintezi. - London: Routledge.
20. Von Bertalanffy, L. (1968). Umumiy tizimlar nazariyasi. - Nyu-York: George Braziller. - 289 b.



21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-sentyabrdagi PF-178-son Farmoni. "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi.
22. Senge, P.M. (2006). Beshinchi intizom. 2-nashr. - Nyu-York: Doubleday.
23. Hargreaves, A., & Fullan, M. (2012). Professional kapital: Har bir maktabda o'qitish sifatini transformatsiya qilish. - Nyu-York: Teachers College Press.
24. Karimov, J.B. (2024). Toshkent viloyati umumta'lim maktablarida boshqaruv samaradorligini baholash. Ta'lim va fan. - №2. – 78-94-b.
25. Desimone, L.M., & Fisher, T. (2022). Ta'limiy kouching yuqori sifatli professional rivojlanish sifatida. Theory Into Practice jurnali.
26. Marzano, R.J., va boshqalar (2005). Natija beruvchi maktab yetakchiligi. - Aleksandriya, Virjiniya: ASCD.
27. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.